

## **“SADOQAT” KONSEPTINING MAQOLLARDA SHAXS OTLARI TIMSOLLARI ORQALI IFODALANISHI**

**Xilola UZAKOVA**

o‘qituvchi

Davlat xafvsizlik xizmati “Temurbeklar maktabi”

harbiy-akademik litseyi

Toshkent, O‘zbekiston

### **Annotatsiya**

Maqolada “sadoqat” konseptining madaniyatda tutgan o‘rni, umummilliy va etnik belgilarga ega ekanligi, har bir tilda o‘ziga xos ifoda vositalari orqali namoyon bo‘lishi yoritilgan. “Sadoqat” konseptiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlil qilingan. O‘zbek tilida “sadoqat” konseptini ifodalovchi lisoniy vositalarning turlicha ekanligi qayd etilgan va shu vositalardan biri sifatida maqollar keltirilgan. Maqollarda “sadoqat” konseptining shaxs otlari timsollari orqali ifodalanishidagi semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** konsept, “sadoqat” konsepti, sadoqat, sadoqatli, sodiq, vafo, vafodor, qadriyat, aksqadriyat, beyvafo, vafosiz, etnik belgi, mediamatn, madaniyatlar aro muloqot, maqol, lisoniy vosita.

## **ВЫРАЖЕНИЕ ПОНЯТИЯ «ПРЕДАННОСТЬ» В СТАТЬЯХ ЧЕРЕЗ СИМВОЛЫ ЛИЧНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ**

**Хилола УЗАКОВА**

преподаватель

Военно-академический лицей “Темурбеклар мактаби”

Службы государственной безопасности

Ташкент, Узбекистан

### **Аннотация**

В статье описывается роль понятия «преданность» в культуре, его национально-этнические особенности и их проявление в каждом языке через собственные средства выражения. Анализируется исследование понятия «преданность». Отмечается, что в узбекском языке существуют разные лингвистические средства, выражающие понятие «преданность», и в качестве одного из таких средств упоминаются пословицы. В пословицах анализируются семантико-методологические особенности выражения понятия «преданность» через символы личных существительных.

**Ключевые слова:** концепт, концепт «преданность», преданный, верный, ценность, антиценность, неверный, не преданный, этнический признак, медиатекст, межкультурный диалог, пословица, статья, лингвистический инструмент.

Axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish, qadriyatlarni ulug‘lash har bir xalq madaniy taraqqiyoti doirasidagi ma’naviy ehtiyojlardan biridir. Madaniyatlarni

muloqotda avlodlar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bir qator fazilatlar qayd etilganini kuzatamiz. Ana shunday madaniy kodlardan biri “sadoqat” konseptidir.

“Sadoqat” konsepti dunyo tillarida turlicha nomlanadi, ifoda vositalari jihatidan ham farqlanadi. Jahon tilshunosligida “sadoqat” konseptining mazmuni, umummilliy hamda etnik xususiyatlari o‘rganilgan. Xususan, “sadoqat” qadriyat konsepti sifatida ingliz va rus madaniyatida mediamatnlar misolida tahlil etilgan. “Sadoqat” qadriyat konseptining sotsium lisoniy ongida shakllangan milliy olam manzarasini tarixan tiklashda muhim o‘rin tutishi, ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat qadriyati shakllanishining dinamik manbaya sifatidagi xususiyatlari yoritilgan. “Sadoqat” konsepti britan va rus jamiyatining qadriyatlar tushunchasi, o‘rganilayotgan madaniyat, turmush tarzi, axloqiy stereotiplar va milliy xarakterni ochqich vazifasini o‘tashi qayd etilgan. “Qadriyat” tushunchasi ostida ma’naviy va moddiy obyektlar tushunilishi ta’kidlanib, “sadoqat” konsepti *love / любовь, kindness / доброта, honest/честность, courace / мужество, tolerance / толератность* kabi ma’naviy qadriyatlar qatorida sanalgan. “Sadoqat” inson egallashi lozim bo‘lgan muhim va noyob axloqiy-etik qadriyat sifatida tavsiflangan. Britan va rus tilidagi gazetalardan jamlangan 100dan ortiq mediamatn tahlil qilingan [1; 2972–2978].

“Sadoqat” tushunchasini ifodalovchi “ЛЮБЛЮЩЕСТЬ” so‘zining fransuzcha “sodiq, vafodor” ma’nosidagi *loyal* arxaik so‘zidan olingani asoslangan. Fransuz tilining ko‘pgina terminlar manbasi lotin tilidan olingani, ko‘pgina yevropa davlatlarida lotin asosiy adabiy til sifatida qo‘llangani, rasmiy til va hatto din tili bo‘lgani aytilgan. Fransuzcha *loyal* sifati ham lotincha yuridik termin – “qonuniy” ma’nosidagi *legalis* terminidan kelib chiqqani ko‘rsatilgan. Shu jihatdan terminning rus tilida “qonun doirasida rasman tutib turish”, “kingadir yoki nimagadir neytral munosabatda bo‘lish” hamda “sadoqatli, “sodiq”, kingadir yoki nimagadir sadoqatli” ma’nolarida tarjima qilingani, bir jihatdan “ЛЮБЛЮЩЕСТЬ” tushunchasi qonunga amal qilish, formallik, shu joyda va shu lahzada qabul qilingan qonunlarga bo‘ysunish tushunchalarini o‘z ichiga olishi asoslangan. Ikkinchi

jihatdan *лояльность* soʻzi *верный/ преданный* soʻzlariga sinonim hisoblanishi aytilib, ularning etimologiyasi ham keltirilgan. *Лояльность* tashkilotga, kasbga, mehnat jarayoniga nisbatan qoʻllanishi taʼkidlangan [2; 301–304].

Folklor materiallari, paremiolgik birliklari asosida chechen lisoniy ongida *tesham/верность (sadoqat)* va *teshnabexk/ предательство (xiyonat)* konseptlarining namoyon boʻlishi oʻrganilgan. Paremiyalarning xalq kuzatishlari va tajribasini ifodalashi, olam manzarasining yashash tarzi va xalq mentaliteti haqidagi bilimlarni mujassam etishi qayd etilgan. Paremiyalar tadqiqi etnosning asos madaniy qadriyatlarini aks etirishi aytib oʻtilgan. Chechen madaniyatida sadoqatning hissiyotlarda, qoʻllab-quvvatlashda, qalb sadoqatida, haqgoʻylikda namoyon boʻlishi, xiyonatning ishonchni poymol qilish, suiisteʼmol qilinishda namoyon boʻlishi koʻrsatib berilgan. *Tesham* “sadoqat” va undan yasalgan leksemalarning deyarli har bir paremiyada kuzatilishi, shuning barobarida bu soʻz ishtirok etmagan misollar ham mavjudligi, “sadoqat” konseptining namoyon boʻlishida qiyoslardan foydalanilishi misollar orqali koʻrsatilgan. Sadoqatli doʻstning mustahkam, baland minoraga qiyoslanishi, qalʼa yangligʻ tayanch va himoya vositasi boʻlishi taʼkidlanadi. Sadoqatli doʻstning qondosh singari yaqinligi, akaga tenglashtirilishi aytilgan. Yaqin insonning oson xiyonat qilishi ham qayd etilgan [4; 208–211].

Oʻzbek xalqiga xos har bir qadriyat oʻz tarixiy taraqqiyoti, yoʻnalishi va ifoda usuliga ega. *Sadoqat* konseptining milliy-madaniy belgilarga asoslangan ifoda vositalari mavjud.

*Sadoqat* arabcha doʻstlik, birdamlik; samimiylik maʼnolaridagi soʻz boʻlib, chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlikni aks ettiradi [8,419]. Oʻzbek tilida “sadoqat” konsepti matnlarda ikki usulda ifodalanadi:

1. Bevosita – *sadoqat* va bu soʻzga oʻzakdosh boʻlgan *sadoqatli, sodiq, sodiqlik, sidqidil* birliklari orqali (eksplitsit usulda).
2. Bilvosita – *sadoqat* va unga aloqador birliklar ishtirokisiz, presuppozitsiya orqali (implitsit usulda) ifodalanadi.

*Sadoqat* soʻziga oʻzakkosh *sadaqa* soʻzi “sodiqlik” semasini ifodalaydi. *Sadaqa* arabcha “xayr”, “ehson”, “sadaqa”.

1. Tilanchiga, muhtojlarga beriladigan xayr-ehson.

2. Xudo yoʻliga, aziz-avliyolarga ulardan najot istab qilinadigan ehson; qurbonlik.

3. Oluvchi nazarida sadaqa boʻlib tuyuladigan xayr-ehson, pul.

*Bosh-koʻzidan sadaqa* – sarf qilingan pul, yoʻqotilgan yoki birovga berilgan narsa, mol-dunyoga achinmaslikni bildiruvchi ibora; *jonim sadaqa (boʻlsin)* – birovga cheksiz hurmat-ehtiromni ifodalovchi, «siz uchun jonimni ham berishga tayyorman» mazmunida aytiladigan ibora. *Sadaqa(si) boʻlmoq* – kimsaning qurboni boʻlmoq; kimsa yoki narsaga jon fido qilmoq; aylanmoq, oʻrgilmoq. Sadaqayi odam ket *ayn.* sadqayi odam ket. *Sadaqasi ketmoq ayn.* sadaqa(si) boʻlmoq [7; 418]. Bu soʻz “xayr-ehson” maʼnosiga xoslanib, oʻz lugʻaviy maʼnosida kam qoʻllanadi. *Sadaqa* mumtoz matnlarda ham, hozirgi ozbek tilida ham ehson maqomidagi tushunchalarni ifodalab keladi: *Bu gʻalabaning shukronasi va bu chin tavbaning qabul darajasiga erishmogʻining sadaqasi uchun,...* Zahiriddin Muhammad Bobur farmoni (Kitobning 221–222 sahifalaridagi forsha matnning tarjimasini) [3].

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida *sadoqatsiz, sadoqatsizlik* leksemalari ham qayd etilgan. *Sadoqatsiz* – sadoqati yoʻq; xiyonatkor, bevafo. Sadoqatsiz odam. *Sadoqatsizlik* – sadoqatli, sodiq boʻlmaslik; vafosizlik [7;419].

Tadqiqot davomidagi izlanishlar natijasida *sadoqatsiz, sadoqatsizlik* leksemalari matnlarda deyarli qayd etilmadi.

Sodiqlik fazilatiga ega boʻlish, asosan, Ollohga, dinga, eʼtiqodga sodiqlik nazarda tutib qoʻyilgan arabcha ismlar faol kuzatiladi: *Sadoqat, Sodiq, Siddiq*. “Temur tuzuklari”da ham sadoqatli beklardan birining ismi sifatida keltirilgan: *Ketayotganimizda Yildirin Qorachor avlodidan boʻlmish Siddiq barlosga duch keldim. Meni izlab sargardon boʻlib yurgan ekan* [5;25].

“Sadoqat” konseptining *sadoqat* hamda unga asosdosh boʻlgan *sadoqatli, sodiq, sodiqlik, sidqidil* soʻzlari orqali ifodalanishi meʼyoriy-huquqiy matnlarda,

mumtoz asarlarda, xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydi. “Sadoqat” konseptining leksemalar orqali ifodalanishi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar matnida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek tulidagi matnlarda “sadoqat” konseptining quyidagi kognitiv belgilari uchraydi: 1. “Yurtga sadoqat”. 2. “Elga sadoqat”. 3. “Asliyatga, o‘zlikka sodiqlik”. 4. E’tiqodga sadoqat. 5. So‘zga sadoqat. 6. Yaqin shaxslarga sadoqat.

“Sadoqat” konseptini ifodlovchi lisoniy vositalardan biri maqollardir. Maqollarda “sadoqat” konsepti bevosita *sadoqat, sodiq, vafo, vafodor* kabi qadriyatlar, shuningdek, *bevafo, bevafolik, vafosiz, vafosizlik* aksqadriyatlarini orqali ifodalangan.

Maqollar xalq turmush tajribasini jamlagan eng kichik badiiy janr bo‘lib, inson faoliyati, turmush tarzi haqidagi hukmni badiiy tarzda, ixcham ko‘rinishda aks ettiradi. Maqollarda inson hayotining turli sohasiga oid masalalar, qadriyatlar, urf-odatlariga munosabat o‘z ifodasini topadi. Shunday qadriyatlardan biri “sadoqat” bo‘lib, xalq maqollarida turli timsollar orqali aks ettirilgan.

“Sadoqat” konsepti o‘zbek maqollarida shaxs otlari timsolida aks etgan. Shaxs otlari yordamida “yurtga sadoqat” konsepti ifodalangan:

***gado*** ↔ ***shoh***: => ***gado*** > ***shoh***: *O‘zga yurtida shoh bo‘lguncha o‘z yurtida gado bo‘l* maqolida zaminga sadoqat g‘oyasi ilgari surilgan. *Gado* leksemasi “ojizlik”, “muhtojlik”, “imkoniyatsizlik” semalari asosida *shoh* leksemasiga (“hukmronlik”, “keng imkoniyatga egalik” semalari asosida) qarama-qarshi qo‘yilgan. *Gadolik* “o‘z yurt” tushunchasi negizida qadriyatga aylangan, *shohlik* esa “o‘zga yurt” tushunchasi asosida aksqadriyat sifatida baholangan. *Gado* – *shoh* ziddiyati gadoni shohdan ustun qo‘yish bahosiga asos bo‘lgan.

***Sulton*** > ***cho‘pon***: *Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, O‘z elingda cho‘pon bo‘l* [6;10]. Sulton arabcha “oliy hukmdor”, “podsho” ma‘nolaridagi so‘z bo‘lib, musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvonini bildiradi. Ko‘chma ma‘noda “eng sara” tushunchasini anglatadi. Erkaklar va xotin-qizlar ismi sifatida tanlanganda ham leksemaning ijobiy baho semasi e‘tiborga olingan [7;585]. *Cho‘pon* “cho‘p” bilan faoliyat yuritishga asoslangan leksema bo‘lib, “yaylovda

mayda mol boquvchi kishi” tushunchasini bildiradi [8; 525]. *Sulton va cho‘pon* leksemalari “boshqarish” semasiga ega. Ammo *sulton* “mamlakatni boshqarish”, “xalqni boshqarish” semalariga ko‘ra ulug‘vorlik qiymatini kasb etgan. *Cho‘pon* “podani boshqarish” semasiga ko‘ra “past mavqe” darajasini namoyon etadi. *Sulton va cho‘pon* tushunchalari mansab darajasi, ijtimoiy mavqega ko‘ra o‘zaro zid qo‘yilgan.

***Sulton >ulton:*** *Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, O‘z yurtida ulton bo‘l* [6,10] maqolida sulton leksemasi ultonga zid qo‘yilgan. *Uhton* adabiy tilda iste‘moldan chiqqan arxaik so‘z hisoblanadi. Qoramol terisidan tayyorlangan, pishiq, qalin charm; tagcharmni bildiradi [8; 279]. *Sulton* leksemasida “yuqorilik” semasi, *ulton* leksemasida “oyoq ostilik, quyilik” semalari aks etgan.

*O‘zbek o‘z bilganidan qolmas* [6; 310] maqolida shaxs oti o‘zlikka sadoqatni ifodalovchi vosita bo‘lib kelgan.

*El qudrati –chin qudrat,*

*Vatan tuprog‘i –qimmat* [6; 12] maqolida ham elga, ham Vatanga sadoqat aks etgan. Elning afzalligi uning qudratida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Vatanning qadri esa tuprog‘ining qimmat baholanishi orqali ifodalangan.

*El qo‘ngan yerda,*

*Ot to‘ygan yerda* [6;12] maqolida qo‘nimlilik-qo‘nimsizlik ziddiyati asosida ot va el tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. El yashagan manziliga sadoqat ko‘rsatsa, ot to‘ygan joyiga mehr qo‘yishi tasvirlangan.

*Elga qo‘shilgan moy yutar,*

*Eldan ayrilgan qon yutar* [6;12] maqolida elga sadoqat insonning yashash tarzi, ruhiy holati orqali aks ettirilgan. Moy yutmoq frazemasi “boy”, “to‘kin”, “farovon” yashashni aks ettirsa, qon yutmoq iborasi “azoblanish”, “iztirob chekish” tushunchalarini anglatgan.

*Elga qo‘shilganning ko‘ngli to‘q,*

*Eldan ajralganning beti yo‘q* [6;12] maqolida elga birikkan xotirjam holati ko‘ngli to‘q iborasi bilan ifodalangan. Eldan ajralgan esa ko‘chma ma’noda “yuzsiz”. “orsiz” deb sifatlangan.

*Elga qo‘shilsang, er bo‘lasan,*

*Eldan ajralsang, yer bo‘lasan* [6;12] maqolida elga qo‘shilish, unga sadoqat ko‘rsatish “haqiqiy inson”, “mard” ma’nosida er bo‘lmoq iborasi orqali ifodalangan. Ega sadoqat ko‘rsatmagan, undan ajralgan shaxs yer sifatida tasvirlangan.

*Elga vafo qilgan yoviga jaf qilar* [6;12] maqolida elga vafo qilish dushmanga berilgan katta zarba sifatida izohlangan.

*Elidan bezgan el o‘ngmas,*

*Ko‘lidan bezgan g‘oz o‘ngmas* [6;13] Elidan ayro tushgan insonning kamol topmasligi, rivojlanmasligi aytilgan. Bu holat ko‘lidan ayro tushgan g‘oz holatiga qiyoslangan.

*Elim boshqa degan el bo‘lmas* [6;13] maqolida el omonim sifatida qo‘llangan. Birinchi kelgan el “xalq” ma’nosini ifodalasa, ikkinchi el “do‘st” ma’nosini anglatgan, el bo‘lmoq iborasi tarkibida kelib, “do‘st bo‘lmaslik” tushunchasini ifodalab kelgan.

*Eling senga cho‘zsa qo‘l,*

*Unga doim sodiq bo‘l* [6;13] maqolida qo‘l cho‘zmoq iborasi “yordam bermoq” ma’nosida kelgan, elga sodiqlik sodiq bo‘l qo‘shma fe‘li orqali ifodalangan.

*Elning ichi – oltin beshik* [6;13] maqolida xalq orasi inson uchun eng yaxshi manzilligi tasvirlangan.

*Elning yirtig‘iga yamoq bo‘l,*

*Uzuniga uloq bo‘l* [6;13] maqolida “sadoqat” konsepti yamoq va uloq timsollari orqali aks ettirilgan. Maqolda keltirilgan uzun so‘zi aslida uzuk shaklida bo‘lishi kerak. Maqol mazmunidan kelib chiqilganda uzuk deganda “uzilgan joy” nazarda tutilgan.

*Dindan chiqsang ham eldan chiqma* [6; 10] maqolida “elga sadoqat” konsepti diniy e‘tiqoddan chiqish holatiga qiyoslangan. Bu o‘rinda so‘z dindan chiqish haqida borayotgani yo‘q, balki eldan chiqmaslik targ‘ib qilinmoqda.

*Yordan ayrilsang ham eldan ayrilma* [6;10] maqolida esa “eldan ayrilmaslik” yordan ayrilishga nisbatan olingan.

*Ayrlimagin elingdan, quvvat ketar belingdan* [6;9] maqolida *el* “quvvat manbayi” sifatida baholangan; *Baliq suv bilan tirik, odam el bilan* [6, 9] maqolida esa *el* “tiriklik manbayi” sifatida qadrlangan.

Eldan ayrilguncha, jondan ayril [6;12] maqolida eldan ayrilishdan o‘lim afzalligi ta’kidlangan.

*Ekin yerda ko‘karar, Er –elida* [6;11] maqolida el insonni ko‘kartiruvchi, ya’ni kamolotga eltuvchi omil sifatida baholangan.

O‘zbek iskab bo‘lsa ham elini topar [6;14] maqolida elga sadoqat stereotip darajasiga ko‘tarilgan, millatning xos belgisi sifatida tasvirlangan.

“Elga sadoqat” konseptining aksiologik shkalasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Maqollar	Baho asosi	Ko‘rsatkich
Eldan ayrilguncha, jondan ayril	jon	4
<i>Dindan chiqsang ham eldan chiqma</i>	din	3
<i>Yordan ayrilsang ham eldan ayrilma</i>	yor	2
<i>Ayrlimagin elingdan, quvvat ketar belingdan</i>	quvvat	1

Er yigit o‘zi uchun tug‘ilar, eli uchun o‘lar [6;130] maqolida “sadoqat” tug‘ilish va o‘lish zidligi orqali ifodalanmoqda. Maqolda sadoqat ko‘rsatishning yuqori darajasi – o‘lish, jon fido qilish o‘z ifodasini topgan.

“Yurtga sadoqat” konsepti shaxs tana a’zolari orqali ifodalangan.

**tosh >bosh:** *O‘zga yurtning boshi bo‘lguncha, O‘z yurtning toshi bo‘l* [6;14]. Bu maqoldagi *bosh* va *tosh* so‘zlari aslida zid ma’noli emas. Lekin *bosh* leksemasidagi “yuksaklik” va *tosh* leksemasidagi “oyoq ostidalik” semalariga ko‘ra mazkur tushunchalar zid qo‘yilmoqda. *Tosh* tushunchasining *bosh* tushunchasidan ustun qo‘yilishiga “o‘z yurt” tushunchasi asos bo‘lgan. Bu o‘rinda leksemalarning qofiya talabiga ko‘ra tanlanganini ham ta’kidlash joiz.

Maqollarda “sadoqat” konsepti shaxs otlari orqali *gado* ↔ *shoh, sulton* >*cho‘pon, sulton* >*ulton, tosh* >*bosh* aksiologik modellari vositasida ifodalangan.



Maqollar matnida timsollar “sadoqat” konseptini reallashtirish vazifasini bajargan. Shaxs otlari, zoonimlar bilan bir qatorda tabiat hodisalari, o‘simliklar “sadoqat” konseptini ifodalovchi timsollar sifatida xizmat qilgan.

“Sadoqat” konsepti o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlaridan biri sifatida xalqning qadriyatlar tizimi, omillari, tafakkuri, milliy-madaniy munosabatlari, ijtimoiy-etnik bahosini aks ettiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абдулкадырова А.Б. Ценностный концепт преданность в английской и русской лингвокультурах: на материале современных медиатекстов //Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2022. Том 15. Выпуск 9. – С.2972-2978. Volume 15. Issue 9. – P.2972-2978.

2. Баранская С.С. Проблема этимологии понятия «организационная лояльность» / Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова, 2010. – №2. – С.301-304.

3. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.

4. Идрозова Э.С., Мунгашева М.С. Объективация концептов “верность” и “предательство” в дружеских отношениях в чеченском языковом сознании // Известия ВГПУ. Филологические науки, 2021. – С.208-211.

5. Темур тузуклари. /Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1991. – 144 б.

6. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2002.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3 жилд – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – 688 б.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 жилдлик. 4 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б.